

## Distinctive Characteristics of Its Principal Components

Arofatoy Muydinova

Teacher of the Department of Uzbek Literature  
Chirchik State Pedagogical University

**Abstract:** The article talks about Muvashshah poems of Muhammad Aminkhoja Muqimi, their specific features. Muvashshahs are important in studying the literary and aesthetic world of poets. Studying them on a scientific basis serves to a certain extent in illuminating the dark aspects of the history of literature.

**Key words:** poem, poet, verse, misra, muvashshah, ghazal, musammat.

## Muqimiy Muvashshahlarining O‘Ziga Xos Xususiyatlari

Arofatoy Muydinova

O‘zbek abiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti


**Annotatsiya:** Maqolada Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyning muvashshah she’rlari, ularining o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z boradi. Muvashshahlar shoirlar adabiy-estetik olamini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Ularni ilmiy asosda o‘rganish adabiyot tarixining qorong‘i jihatlarini yoritishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** she’r, shoir, bayt, misra, muvashshah, g‘azal, musammat.

**Аннотация:** В статье говорится о мувашшахских поэмах Мухаммада Аминходжи Мукими, их специфических чертах. Мувашшахи имеют важное значение в изучении литературно-эстетического мира поэтов. Изучение их на научной основе служит в известной степени освещению темных сторон истории литературы.

**Ключевые слова:** поэма, поэт, стих, мисра, мувашшах, газель, мусаммат.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlari o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotida muvashshahchilik o‘ziga xos adabiy taomilga aylangani ma’lum. Bu davr adabiyotiga xos yana



bir o‘ziga xoslik XV asrda Hirot adabiy muhiti shoirlari orasida muammonavislik avj olgani kabi muvashshahchilikning ommalashganidir. Bu an’ana o‘z navbatida Qo‘qon adabiy muhiti shoirlari ijodida ham o‘z ifodasini topdi.

Muvashshahlar, asosan, ishqiy mavzuda g‘azal janrida yaratilgan bo‘lishiga qaramay har bir ijodkorning o‘ziga xos yondashganini kuzatish mumkin. Qo‘qon adabiy muhitining zabardast shoiri Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyy ijodining ham katta qismini muvashshah-g‘azallar tashkil etadi. Shoir ijodiy merosida 75 ta she’r muvashshah qilingan. Shoir asarlarining sovet davridagi eng so‘nggi nashriga<sup>1</sup> 50 ta muvashshah kiritilgan. Ahmadjon Madaminovning 1997-yilda chop etilgan Muqimiyy, Furqat va Zavqiyning yangi topilgan she’rlaridan tuzilgan “Yangi bayoz” kitobida 8 ta muvashshah berilgan. Professor Sharif Yusupov va adabiyotshunos Otabek Jo‘rabyoyev tomonidan matbuotda Muqimiyning yangi topilgan she’rlari sifatida 2 ta muvashshah chop etilgan. Adabiyot ahliga ma’lum bo‘lmagan yana 10 ta muvashshah-g‘azal esa adabiyotshunos Qo‘ldosh Pardayev tomonidan respublikamiz fondlarida saqlanayotgan turli qo‘lyozma va toshbosma bayozlardan aniqlangan<sup>2</sup>.

Muqimiyning Rashidxon, Asrorxon, Yusufxon, Qo‘zixon, Usmonjon, Mahmudxon, Komilxon, Tillaxon, Mullajon, Nazirxon, Namozxon, Solihjon, Jabborxon, Hoshimjon, Norsaxon, Adolxon, Siddiqjon, Mansurxon, Abdullaxon, Nizomxon, Sultonxon, Qurbonxon, Qosimjon, Akbarxon, Toshpo‘latxon, Toshxon kabi zamondoshlari nomiga bitilgan muvashshah-g‘azallari shunchaki bitilmay, ko‘pincha biror voqeа sabab yozilganini e’tiborga oladigan bo‘lsak, muvashshahlarning har biri o‘ziga xos alohida bir tarixga ega. Jumladan, shoirning “Topti husning ko‘zgusi xatting g‘uboridin safo” matla’li muvashshah - g‘azali Tojixon ismiga bitilgan. Tojixon kim, uning shoirga qanday aloqasi bo‘lgan? Shoirning jiyani Ro‘zimuhammad Do‘smatovga yozgan maktubida quyidagilarni o‘qiymiz: “... Ba’da janobi hurmatli boylaringizni xonadonlarini haqlariga faqirdin xolis duoyi xayr aytингiz. Mullo Azimjon va mullo Tojixon mazkurlarni ko‘rsangiz salom aytинг”. Maktubda tilga olingan Mullo Azimjon va mullo Tojixon o‘sha paytda Moskvaga qatnab savdogarchilik qilgan qo‘qonlik boylardir. Shoir jiyaniga yozgan maktublarini shular orqali Moskvaga jo‘natib turgan.<sup>3</sup>

Muqimiyning “Mehr ruxsoring ko‘rarga zordurmiz sog‘inib” deb boshlanuvchi muvashshah-g‘azali Muhammadjon Makay ismiga bitilgan. “Mamajon Makay – asli ismi Muhammadjonbek, otasining ismi Qosimboy. Qo‘qon atrofidagi “Makay” yoki “Makayiston” qishlog‘idan. 1871-yilda shu qishloqda tug‘ilgan. Zamonasining mashhur hofizlaridan, Farg‘onaning, umuman, Turkistonning ko‘p shaharlariга bir necha marta gastrol bilan o‘z san’atini namoyish qilgani ma’lum. Muqimiyy Mamajon Makayga bir qator she’rlar bag‘ishlagan va uning san’atkor sifatidagi xizmatlarini taqdirlagan<sup>4</sup>.


Muqimiyy ijodidagi Adolxonim ismiga bitilgan mashhur muvashshah-g‘azal shoirning

<sup>1</sup> Каримов F. Муқимий. Асарлар тўплами. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б. 76.

<sup>2</sup> Пардаев K. Муқимий шеърияти: матн тарихи, таҳрири ва талқини. – Т.: Мұхаррир, 2019. – Б.172.

<sup>3</sup> Ўша асар. – Б.73.

<sup>4</sup> Каримов F. Муқимий. (Монография) – Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1970. – Б.67.



san'atkorona mahoratini yaqqol namoyon etadigan asarlari sirasiga kiradi.

Aql-u hush uchti boshimdin ey pari, devonaman,

Bir iloje qil, el ichra bo'lmayin afsona man, –

matla'li mazkur muvashshah-g'azal Muqimiyning alohida shuhrat topgan va shoir asarlarining deyarli barcha nashrlaridan joy olgan noyob asarlaridan hisoblanadi. Bu g'azalga shoir bilan zamondosh shoirlardan tashqari uning o'zi ham taxmis yozganligi Muqimiyl bu muvashshahini qanchalar qadrlaganligidan dalolat beradi. Davr adabiyotiga xos nazira, tatabbu' bitish an'anasi chetlab o'tmagan shoir Zoriy lirkasida ham Muqimiyning mazkur muvashshahiga yozgan taxmisi ruhi va uslubida yozilgan, qofiya va radifi ham aynan bo'lgan muxammasi uchraydi. Muqimiyl taxmisi quyidagi band bilan boshlangan:

To asir o'ldim o'shal kun sen kabi jonona man,

Zar'i husning xirmanidin bir terolmay dona man

Tobakay mundog' kuyarman otashi hijrona man,

Aql-u hush uchti boshimdin, ey pari, devonaman,

Bir iloje qil, el ichra bo'lmayin jononaman<sup>5</sup>.

Zoriy shu uslubni saqlagan holda, "Aql-u hush uchti boshimdin, ey pari, devonaman" misrasini mazmunini birinchi misraga chiqarib, undagi mazmunni kuchaytiradi va yangi tafsilotlar bilan boyitadi:

Sabr-u hushum ham ketibdur, telbaman, devonaman,

Purziyolig' bobida sen sham'u men parvonaman,

Bulmasal mashhuri xaloyiq, chug'zdek vayronaman,

G'urbat ahlidin bo'lay desang yana begonaman,

Bu jamoli nargisingdin o't bila hamxonaman.

Adabiyotshunoslarning turlicha talqinlariga sabab bo'lgan muvashshah-g'azal matni quyidagicha:

**Aql-u** xush uchti boshimdin, ey pari, devonaman,

Bir iloje qil, el ichra bo'lmayin afsona man.

**Dard-u** so'zu ashku ohimni qiyos et sham'din,

Shomdin to subhidam hajringda o'rtab yonaman.

**Ul** zamoneki yiroq vaslingdin o'ldum, to bu dam

Har kecha yodingda ming yo'l uyqudan uyg'onaman.

**Lahzai** zahri g'amming yutmoqqa toqat qolmadni,

No'sh etib vasling mayidin ham qachon bir qonaman.

**Xoma** mujgon, ko'z qarosidin ñizib rozi dilim,

Arzai qildim, eshit, ma'yusu mushtoqona man.

**Ohkim**, sensiz qaroru sabr-u oromim ketib,


Bir ilon chaqqan kishidek har taraf to'lg'onaman.

**Navbati** jomim to'la quyg'il karamdin, soqië,

Har qadamda to qilay yuz lag'zishi mastona man.

**Mulki** Hind-u Marvdin kelsam topardim e'tibor,

<sup>5</sup> Каримов F. Муқимий. Асарлар тўплами. – Т., 1974. – Б.307.




Shul erur aybim, Muqimiyy, mardumi Farg‘onaman.

Bu muvashshah haqida Sh.Yusupov quyidagilarni yozadi: “Muqimiyy ijodining sho‘ro davridagi dastlabki tadqiqotchilaridan akademik Fafur G‘ulom g‘azal maqta’idagi “Mulki Hind-u Marvdin” so‘zlaridan muammo san’ati qoidalariga ko‘ra shoir Muhyining haqiqiy ismi Muhiddin chiqishini, g‘azal muvashshah qilingan Adolxonimning murakkab hayot yo‘li xususida esa “Qizi xalqidan uzr so‘raydi” sarlavhali maqola boshlaganini shogirdlari va do‘srtlari davrasida aytganligi ma’lum. Xullas, “Aql-u xush” g‘azali Adolxonga muvashshah va Muhiddin Muhyiga muammo sifatida dunyo yuzini ko‘rdi va zo‘r shuhrat qozondi. Xo‘s, Muqimiyy o‘z ona yurtida e’tibor topmaganini, bunga go‘yo Muhyi sababchi ekanini nega ijtimoiy mavzudagi biror she’rida emas, balki hijronzada oshiqning ko‘z qarosidan siyoh yasab bitilgan dilxun g‘azalida bayon etadi? Bu savolga javob izlaganda ikki ulug‘ qalam sohibi munosabatlariga sovuqchilik xuddi shu Adolxon tufayli ham tushmadimi ekan degan fikr tug‘ilishi tabiiy... Harqalay, Muhyi bilan Muqimiyy orasida ko‘ngilsiz voqealar ro‘y berishida Adolxonim har ikki shoir tomonidan bir vaqtida sevib qolinishi va Muqimiyy bu muhabbat mojarosida uchinchi, ya’ni ortiqcha kishi bo‘lib qolganligi ham ehtimol. Uning xuddi Adolxonim nomiga bitilgan muvashshahda Muhyichalik qadr topa olmaganidan qattiq afsuslanishi shuning natijasi bo‘lishi mumkin”<sup>6</sup>.

Mazkur muvashshah borasida adabiyotshunos O.Jo‘rboyevning talqinlari yuqoridaq talqinni butunlay inkor qiladi: “...Bizningcha, avvalo, kim nima deya faraz bildirishidan qatiy nazar, “Mulki Hind-u Marvdin” iborasidan shoir Muhyining ismi – “Muhyiddin” so‘zi arab yozuvi talablariga ko‘ra chiqmaydi; misrada muammo san’ati va unga ishora ham yo‘q. Ikkinchidan, mazkur ism chiqmagach, aslida g‘azal Muhyi bilan bog‘langani va uning Adolxonimga atalib, shu ayol tufayli ikki ijodkor o‘rtasidagi muammoning qo‘yilishi ham asoslanmaydi. Muvashshah masalasi esa an’ana bilan bog‘liqdir... Uchinchidan, Muqimiyning bu she’ri 1880-yillar oxiri – 1890-yillar boshidagi ijod mahsullaridandir. Haqiqatda yashagan Adolxon esa bu ikki shoirdan ancha yosh bo‘lib, bahsga sabab she’r dunyoga kelganida, u taxminan 7-8 yashar qizaloq bo‘lganligi ehtimol. Chunki Adolxonga dugona deya ta’kid etilgan xalq artisi, mohir san’atkor Lutfixonim Sarimsoqovaning (1896-1991) yoshi bilan qiyoslaganda ham bu o‘rinda bir anglamsizlik bor. Ustiga-ustak, Muhyining o‘zi ham Muqimiyydan 15 yosh katta edi. Endi uning Adolxonidan qancha yosh ulug‘ ekanligini bir chamalasak ham, bu “muhabbat uchligini” tasavvur etishning o‘zi mantiqqa xilof. (Balki, bu Adolxon Muqimiyy she’rida nomi muvashshah qilingan shaxs emasdir.) Va nihoyat to‘rtinchidan, munozaraga sabab bo‘lib, tadqiqotchilarini o‘ziga bu qadar jalb etgan asosiylar jihat nazarimizda g‘azaldagi so‘nggi bayt ya’ni, maqta’dir. Shoir unda boshqa bir yerdan kelib e’tibor topish mumkinligini va o‘zining “aybi” “mardumi Farg‘ona” ekanligini “afsus-nadomat” bilan bildiradi. Biroq, shuni ham ta’kidlash kerakki, bunday motiv, ya’ni o‘z-o‘zini qaysidir ma’noda malomat qilish va nolish ohangi, Muqimiyydan oldingi shoirlar ijodida ham uchraydi...<sup>7</sup> Xullas, adabiy manbashunoslik yo‘nalishidagi tinimsiz ilmiy izlanishlar tarix qatlarida qolib ketayotgan ana shunday ayrim chalkashliklarga barham beradi.

<sup>6</sup> Юсупов Ш.Тарих ва адаб бўстони. – Т.: Маънавият, 2003. – Б.128-129.

<sup>7</sup> Жўрабоев О. Матнинг матности сирлари. – Т.: Тамаддун, 2017. – Б.97-98.



Muqimiyning: “May sunib, jono, qilursan g‘ayrni xurram borib, Bir demassan shod etay ul ham asiri g‘am, borib”, – misralari bilan boshlanuvchi muvashshah-g‘azali Mahmudxonga bag‘ishlangan. Mahmudxon – Mahmudxo‘ja shoirning toshkentlik do‘stlaridan biri. Prof.G‘.Karimovning “Muqimi” monografiyasidagi ma’lumotlarga ko‘ra Muqimiyning Toshkentga qilgan birinchi safaridan keyin u bilan toshkentlik do‘stlari o‘rtasida muntazam xat aloqasi davom etib turadi. Bu yozishmalardan biri – “Nuktadonlar, assalom” sarlavhali she’riy maktubi. Mahmudxo‘ja Qo‘qonga kelib, “bir necha kunlar mehmon bo‘lgan, u kelgan vaqtarda Muqimiyoq‘liga qandaydir shikast yetgan edi. Shuning uchun u o‘z maktubida:

Hamdilillah, qo‘lum ham topdi sihat andaki,

Holi ne kechti debon qilmang gumonlar, assalom, – deb do‘stlarini tinchitib qo‘yadi va maktubni quyidagi misralar bilan tugatadi:

Yor-u ahbobim duosi-la Muqimi zindaman,

Goh sizdin ham mango kelsun nishonlar, assalom.

Muqimiyning shu davrda Toshkentga yo‘llagan nasriy yo‘lda yozilgan yana bir maktubi ham “Rang-bo‘yi chaman, mehr-u vafo tarovat fazoyi bo‘ston Mahmudxo‘ja va g‘oyibona oshnomiz mulla Karimjon” (shoir Kamiy)ga atalgan<sup>8</sup>. Mahmudxo‘ja ishboshi – Shayxantahurlik, pudratchi-binokor bo‘lgan, shuning uchun “ishboshi” nomi bilan shuhrat qozongan. Zamonasing peshqadam, taraqqiyatparvar, ilmparvar kishilaridan biri. San‘at-adabiyot ahllariga moddiy jihatdan yordam berib, homiylik qilib kelgan. Uning hovlisida (mehmonxonasida) tez-tez adabiy kechalar o‘tkazib turilgan. Bu kechalarda Muqimiham, o‘z vaqtida Furqat ham ishtirok etgan. Muqimiyning Mahmudxo‘jaga atab alohida va Kamiy bilan birgalikda yozgan bir necha maktublari – avtograflari saqlanib qolgan.

Qo‘qon bilan Toshkent o‘rtasidagi yozishmaning tiklanishidan keyin oradan ko‘p vaqt o‘tmay, Muqimi Toshkentga yo‘lga chiqadi. Shunday qilib, Muqimi 1899-yilning taxminan yoz paytlarida Toshkentga uchinchi marta keladi. Toshkent Tarnovboshi (Shayxantahurda) mahallalik keksalardan Salohiddin Muftizoda o‘z esdaliklarida 1899-yilning yoz oylarida Muqimiyni Mahmudxo‘ja mehmonxonasida uchratganini aytadi. Bu vaqtarda o‘n uch yoshlarida bo‘lgan (u 1886-yilda tug‘ilgan) Salohiddin otasi mulla Abdumo‘min (bu kishi “Fidoyi” taxallusi bilan she’rlar yozgan, adabiyot havaskori bo‘lgan) topshirig‘iga binoan Mahmudxo‘ja mehmonxonasida Muqimi sharafiga tashkil etilgan ziyofatda xizmat qilgan, shu munosabat bilan shoirni ko‘rishga, uning suhabatini tinglashga tuyassar bo‘lgan<sup>9</sup>.

Shoirning “Orazingni ko‘rgali mushtoqman, ey sarvi noz, Mahram aylab ne bo‘lur vaslingga qilsang sarfaroz”, – misralari bilan boshlanuvchi muvashshah-g‘azali “Xon akam”(Abdulazizzonga atalgan) sarlavhali she’rida nomi uchraydigan toshkentlik do‘stlaridan yana biri Abdulsamadxonga bag‘ishlangan.


Muqimi ijodida ham bir shaxs nomiga bitilgan bir necha muvashshahlar uchraydi. Jumladan:

“Subhidam kirib, jono, bog‘ ichinda javlon qil,

Domaning nasimidan g‘unchalarni xandon qil”, –

<sup>8</sup>Қаранг: Каримов F. Муқими. Монография. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт, 1970. – Б.96-97.

<sup>9</sup> Қаранг: Каримов F. Муқими. Монография. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт, 1970. – Б.113.



misralari bilan boshlanuvchi muvashshah-g'azal va

“Sa'b ekan mundog‘ judolig‘ ixtiyor aylarmudim?

O‘zga men yorug‘ jahonni tang-u tor aylarmudim? ” –

matla’li muvashshah-g‘azallar Siddiqxon nomiga bitilgan. Siddiqxon shoirning toshkentlik do‘sstaridan Siddiq qori bo‘lib, Toshkentning Sebzor daha, Teshik qopqa mahallasidan, zamonasining ilg‘or fikrli kishisi bo‘lgan<sup>10</sup>.

“Uqubatlarg‘a solding, qaydi hijron aylading ketding,

Jamolingga misoli ko‘zgu hayron aylading, ketding”, –

matla’li muvashshah-g‘azal bag‘ishlangan Abdulfattohxon shoirning do‘sstaridan bo‘lib, u Toshkentdalik paytida yozgan maktubini shu do‘sti orqali Qo‘qonga yuborganini yozadi:

Abdulfattohni topib kelganda berdim xatlarin,

Ishlari bitmay chala, bormakka hayron, assalom.

Kecha-yu kunduz jadallab ishlarimni birkurib,

Qilmasam bo‘lmas, – dedi chun murg‘i tayron, assalom”<sup>11</sup>.

Muqimiy ijodida ham bir kishi ismiga bir qancha muvashshahlar bitilgani ma'lum. Jumladan, Rashidxon ismiga 4 ta, Jamolxon nomiga 2 ta, Solihxon nomiga 2 ta, Nizomxon nomiga 4 ta, Fo‘lodxon – Toshfo‘lodxon nomiga 2 ta muvashshah-g‘azali mavjud.


Shoir muvashshahlarida ismi keltirilgan shaxslar Muqimiy hayotida alohida o‘rin tutganini ta‘kidlash mumkin. Bu kishilar ismi Furqat, Zavqiy, Muhyi va Haziniy muvashshah-g‘azallarida ham ko‘p uchraydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жўрабоев О. Матнинг матности сирлари. – Т.: Тамаддун, 2017.
2. Каримов F. Муқимий. Монография. – Т.: Faafur Fулом номидаги бадиий адабиёт, 1970.
3. Муқимий. Асарлар тўплами. Икки томлик. Иккинчи том. Ҳажвиёт. – Т., 1960.
4. Пардаев Қ. Муқимий шеърияти: матн тарихи, таҳрири ва талқини. – Т.: Мұхаррір, 2019.
5. Юсупов Ш. Тарих ва адаб бўстони. – Т.: Маънавият, 2003.
6. Майданова, А. (2022). МУВАШШАҲЧИЛИК АНЪАНАСИ. *Academic research in educational sciences*, 3(3), 1042-1047.
7. Майданова, А. (2021). Ўзбек миллий уйғониш адабиётида мувашshaҳчилик. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 1219-1224.
8. Майданова, А. (2022). Ўзбек мумтоз шеъриятида мувашshaҳ санъати. *Globallashuv davrida tilshunoslik va adabiyotshunoslik taraqqiyoti hamda ta'lim texnologiyalari*, 1(1), 179-182.
9. Икрамов, Р. А., & Мўйдинов, Қ. А. (2021). Ҳукуқ тили ва нутқи. *Academic research in educational sciences*, 2(9), 719-727.

<sup>10</sup> Қаранг: Муқимий. Асарлар тўплами. Икки томлик. Иккинчи том. Ҳажвиёт. – Т., 1960. – Б.189.

<sup>11</sup> Ўша асар. – Б.100.



- 
10. Мўйдинов, К. (2021). Ҳукм сўзининг тил ва нутқда ифодаланиши. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 1253-1258.